

KOREYS TILIDA DENDROKOMPONENTLI QO‘SHMA OTLARNING YASALISH MODELI VA SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Nosirova Nigora Olimjon qizi,

Samarqand Davlat Chet tillar instituti Sharq tillari fakulteti

Koreys filologiyasi kafedrası o‘qituvchisi

nigoranosirova0702@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada koreys tilida qo‘shma otlar, xususan dendro leksik komponentli qo‘shma otlarning yasalishi modellari, struktur-semantik xususiyatlari tahlil qilinadi. Maqolada koreys tilida daraxt nomlarini ifodalovchi dendronimlar ishtirokida hosil bo‘lgan qo‘shma otlar leksik-semantik guruhlarga ajratilib, ularning nominativ va metaforik ma‘nolari ochib beriladi. Shuningdek, koreys tilidagi dendrokompomentli qo‘shma otlarning yasalishi koreys xalqining milliy-madaniy tafakkuri bilan bog‘liqligi yoritiladi.

Kalit so‘zlar: dendrokompoment, qo‘shma otlar, struktur-semantik tizim, koreys tili, so‘z yasalish modeli, milliy tafakkur, metaforik ma‘no, nominativ ma‘no.

Abstract. This article analyzes compound nouns in the Korean language, with particular emphasis on compound nouns containing dendrocomponents. The study examines their formation models as well as their structural and semantic characteristics. Compound nouns formed with dendronyms denoting tree names are classified into lexical-semantic groups, and their nominative and metaphorical meanings are revealed. In addition, the formation of compound nouns with dendrocomponents in the Korean language is discussed in relation to the national and cultural worldview of the Korean people.

Keywords: dendrocomponent, compound nouns, structural-semantic system, Korean language, word-formation model, national worldview, metaphorical meaning, nominative meaning.

Аннотация. В данной статье анализируются сложные существительные в корейском языке, в частности сложные существительные с дендрокомпонентами. Рассматриваются модели их образования, а также структурно-семантические особенности. Сложные существительные, образованные с использованием дендронимов, обозначающих названия деревьев, классифицируются по лексико-семантическим группам, выявляются их номинативные и метафорические значения. Кроме того, процесс образования сложных существительных с дендрокомпонентами в корейском языке рассматривается в связи с национально-культурным мировоззрением корейского народа.

Ключевые слова: дендрокомпонент, сложные существительные, структурно-семантическая система, корейский язык, модель словообразования, национальное мировоззрение, метафорическое значение, номинативное значение.

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikda so‘z yasalish hodisasi, ayniqsa qo‘shma so‘zlarning hosil bo‘lish usullari alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Har bir tilning leksik bazasida qo‘shma otlar muhim o‘rin egallab, ular orqali predmet va hodisalar aniq hamda ixcham tarzda nomlanadi. Koreys tilida ham qo‘shma otlar koreys tili leksikologik boyligining faol fondini tashkil etadi.

Tabiat bilan bog‘liq leksik birliklar, xususan daraxt nomlari ishtirokida hosil bo‘lgan qo‘shma otlar koreys xalqining madaniy dunyoqarashi, milliy ramzlari va estetik tasavvurlarini o‘zida aks ettiradi. Shu bois dendrokompomentli qo‘shma otlarni lingvistik nuqtayi nazardan o‘rganish nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik uchun ham

muhim hisoblanadi. Ushbu maqolaning maqsadi koreys tilida dendrokomponentli qo'shma otlarning yasaliş modellarini aniqlash, ularning struktur-semantik xususiyatlarini tahlil qilishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili. Koreys tilida qo'shma so'zlar va so'z yasaliş masalalari koreys tilshunosligida keng o'rganilgan bo'lib, ayniqsa 김광해, 이기문 hamda 남기심 va 고영근larning ilmiy tadqiqotlarida qo'shma otlarning struktur va semantik xususiyatlari batafsil yoritilgan. Ushbu tadqiqotlarda koreys tilidagi ot + ot modelining mahsuldorligi hamda leksik birliklarning semantik kengayishi masalalari muhim o'rin egallaydi. O'zbek tilshunosligida esa A. Hojiyev va M. Karimov tomonidan so'z yasaliş hamda o'simlik nomlari etimologiyasi tadqiq etilib, tabiat bilan bog'liq leksik birliklarning lingvokulturologik xususiyatlari tahlil qilingan. Biroq koreys tilidagi dendrokomponentli qo'shma otlarning struktur-semantik tizimi va ularning milliy-madaniy tafakkur bilan bog'liqligi maxsus tadqiqot obyekti sifatida yetarli darajada o'rganilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda struktur-semantik tahlil, komponent tahlili hamda tavsifiy metodlardan foydalanildi. Koreys tilidagi dendrokomponentli qo'shma otlar lingvistik jihatdan tahlil qilinib, ularning yasaliş modellari va semantik xususiyatlari aniqlashtirildi. Shuningdek, misollarni guruhlash va qiyosiy tahlil qilish orqali dendro birliklarning nominativ hamda metaforik ma'nolari yoritildi.

Tahlillar va natijalar. "Dendro" atamasi yunoncha dendron so'zidan olingan bo'lib — "daraxt" ma'nosini bildiradi.

Tilshunoslikda dendrokomponent deganda qo'shma so'z tarkibida qatnashuvchi daraxt, yog'och yoki o'simlikka oid leksik birliklar tushuniladi. Bunday komponentlar orqali yasalgan qo'shma so'zlarda dendro leksik birliklar o'zi qo'shilayotgan so'zning aniqlovchisi yoki uning semantik doirasini kengaytiruvchisi vazifasini bajaradi.²

Koreys tilida dendrokomponent sifatida quyidagi leksemalar faol ishlatiladi:

나무-daraxt

소나무 - qarag'ay

대나무- bambuk

버드나무 - tol

잣나무- kedr

Ushbu birliklar ishtirokida yasalgan qo'shma otlar koreys tilining so'z yasaliş tizimida muhim o'rin egallaydi.

Koreys tilida qo'shma otlar asosan ikki yoki undan ortiq mustaqil leksik birliklarning birikuvi orqali yasaladi. Koreys tilida qo'shma otlar quyidagi modellar asosida hosil bo'ladi:

1. Ot + ot strukturali
2. Sifatlashgan ot + ot
3. Fe'l negizi + ot

Dendrokomponentli qo'shma otlar yuqoridagi modelning ot +ot tuzilmasi asosida yasaladi va bu modeldagi daraxt nomini ifodalovchi ot aniqlovchi komponent sifatida keladi:

나무 + 집 = 나무집 (yog'och uy)

나무 + 다리 = 나무다리 (yog'och ko'pri)

Ba'zi qo'shma otlarda dendrokomponent o'zi qo'shilayotgan predmetning funksional vazifasini yoki tashqi belgisini ifodalaydi:

나무 + 의자 = 나무의자 (yog'och stul)

소나무 + 향 = 소나무향 (qrag'ay hidi)

Bu turdagi dendrokomponentli qo'shma otlar predmetning fizik xususiyatlarini ta'kidlash uchun ham xizmat qiladi.

Semantik xususiyatlariga ko'ra dendrokomponentli qo'shma otlarni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

Bevosita nominativ ma'no bo'lib ya'ni dendro birlik o'zi birikkan otni real holda va to'g'ridan- to'g'ri ifodalaydi:

나무 + 그늘 = 나무그늘 (daraxt soyasi)

나무 + 뿌리 = 나무뿌리 (daraxt ildizi)

Bunday holatda denro birlik o'zi qo'shilayotgan otga metaforik ma'no yuklamasdan o'z ma'no(asl)ni beradi.

Shu bilan birga dendro komponentli qo'shma otlar ramziy va ko'chma ma'noga ham egadir. Quyidagi misollarga qaraymiz:

대나무 + 정신 = 대나무정신 (bambuk ruhi)

소나무같은 사람 (qrag'ayga o'xshash odam)

Yuqoridagi misollardan shuni anglash mumkin-ki, koreys xalqi tabiat obrazlari orqali insonga xos bo'lgan fazilatlarni ifodalashga moyilligini namoyon etadi. Koreys madaniyatida daraxtlar, o't-o'lanlar muhim ramziy ahamiyatga ega bo'lgan. Xususan, 소나무 (qrag'ay) uzoq umr va sodiqlik ramzi, 대나무 (bambuk) hallolik va qat'iyat

timsoli sifatida qaralgan. Shu sababli daraxt va o't-o'lan komponentli birliklar ishtirokidagi qo'shma otlar faqat lingvistik birlik sifatida qaralmay, madaniy ahamiyatga ham ega hisoblanadi.

Xulosa. Koreys tilida dendrokomponentli qo'shma otlar asosan ot + ot modeli asosida yasaladi va o'rinli lingvistik ahamiyatga ega. Dendrokomponentli qo'shma otlar nominativ, tasviriy(ramziy) hamda metaforik ma'nolarni ifodalashda muhim rol o'ynaydi. Dendrokomponentli qo'shma otlar ijtimoiy hayotda ham madaniy ahamiyat kasb etib, koreys xalqining tabiatga bo'lgan munosabatini va milliy tafakkurini aks ettiruvchi muhim lingvistik birlik hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. 김광해. 한국어 단어형성 연구. 서울: 집문당, 2003.
2. 이기문. 국어어휘론. 서울: 태학사, 2005.
3. 남기심, 고영근. 표준국어문법론. 서울: 탑출판사, 2011.
4. 허웅. 국어형태론. 서울: 신구문화사, 2008.
5. Karimov, M. O'zbek tilida o'simlik nomlari etimologiyasi. – Toshkent: Fan, 2005.
6. Hojiyev, A. O'zbek tilida so'z yasalishi. Toshkent: Fan, 2007.
7. Виноградов, В. В. Русский язык. Москва: Высшая школа, 1986.
8. Nosirova, N. (2025). The role of zoomorphic components in Korean idiomatic expressions describing human appearance. *Journal of Oriental Philology*, 5(6), 90–95.
9. Nosirova, N. (2026). A semantic analysis of grammatical markers expressing negative cause–effect relations in Korean: –aseo/eoseo, –gi ttaemune, and –neurago. *Journal of Oriental Philology*, 5(7), 448–454.